

“MUQADDAS” QISSASIDAGI MUQADDAS TUYG’ULAR

Yorbulova Dildora Shokir qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O’zbek tili va adabiyoti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada elimiz suygan adib Odil Yoqoubovning “Muqaddas” qissasi tahlil qilinadi. Qissasidagi insoniy xislatlar, axloqiy fazilatlar bahs-munozaraga tortiladi. Qissadagi asl ma’no tegishli dalillar orqali asoslanadi.

Tayanch so’zlar: qissa, hikoya, pyesa, ocherk, munaqqid, syujet.

Annotation: This article analyzes the story "Mukaddas" by our favorite writer Adil Yakubov. The human qualities and moral qualities in the story are discussed. The original meaning of the story is supported by relevant evidence.

Key words: story, story, play, essay, critic, plot.

Hamza nomidagi O’zbekiston Davlat mukofoti laureate, “Do’stlik”, “El-yurt hurmati” ordenlari sohibi Odil Yoqubov o’zbek nasriga sezirarli darajada iz qoldirgan. Adib O’zbekiston xalq yozuvchisi, mohir tarjimon, munaqqid va publitsistdir. Odil Yoqubov nihoyatda bag’rikeng, samimi, ochiqko’ngil va oqko’ngil inson edi. U kishi ayrim injiq, o’z bilganidan qolmaydigan o’jar va byurokrat muharrirlarga o’xshab hadeb xodimlarning ishlariga aralashavermasdi, bo’larbo’lmas narsalarni so’rayvermasdi. Tahririyatga keladigan xatlarni erinmasdan o’qib chiqardi. Yurakni “jizillatadi”gan xatlar uchrab qolsa, darhol ularni ustidan bir qur ko’rib, gazetaning “Kuyunchak gazetxonlardan xatlar” rukniga tayyorlab, chop etishga tushirib yuborardi. Xuddi shunday zukko va serqirra ijodkor, o’zining ko’plab mashhur asarlati bilan bizga tanish.

Odil Yoqubov – serqirra ijodkor. U o’zining hikoya va ocherklari, publisistik maqola va pyesalari, xususan, qissa va romanlari bilan kitobxonlar ommasining sevimli yozuvchisi bo’lib qolgan. Adib, ayniqsa, hikoya, qissa va roman janrlarida o’z iste’dodini to’liq namoyon qilgan. Zero, u Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Oybek,

G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi ustoz yozuvchilarning an'analarini yangi davrda davom ettirgan va rivojlantirgan. Odil Yoqubovning «Vido», «Muzqaymoq» singari asarlari o'zbek hikoyachiligining go'zal namunalaridir.

Odil Yoqubovning qissachilik sohasidagi ijodiy izlanishlari g'oyat samaralidir. Adib turli yillarda «Bir feleton qissasi», «Tilla uzuk», «Muqaddas», «Ota izidan», «Matluba», «Qaydasan, Morika» kabi asarlar yozib, o'zbek qissachiligi taraqqiyotiga katta ulush qo'shdi. Odil Yoqubov qissalari – mavzu jihatidan rang-barang, mazmunga boy. Bu qissalarda zamondoshlarimizning murakkab va jonli obrazlari chizilgan. Adib qissalarida tugab syujet va yorqin obrazlar yaratib, inson va zamin, vijdon va burch hayot haqida chuqur fikr yuritadi. Xalq hayotidagi ezguliklarning ahamiyatini ko'rsatib, halol ishlab, halol yashash g'oyasini ustalik bilan ifodalaydi. Qing'irlilik, noplilik, xiyonat va sotqinlikni kesish qoralab, ularni badbaxtlikka, yuzi qoralikka qiyos qiladi. Xuddi shunday ma'no-mazmunag ega qissalaridan biri "Muqaddas" qissasi. 1961-yilda e'lon qilingan bu qissa, ko'p vaqt o'tmay omma e'tiboriha tushdi. Shoirlaridan biri bu qissani quyidagicha eslaydi.

"Odil Yoqubov bilan ilk bor "Muqaddas" qissasi orqali tanishganman. G'oyat samimiyligi, kuyinchaklik bilan yozilgan asar edi. Keyin "Ulug'bek xazinasi"ni o'qidim. Roman menda chuqur taassurot qoldirdi. Teran ruhiy tahlil bilan qorishib ketgan keng, epik tasvir xayolimni butkul qamrab oldi. Bir kuni atay Odil akaning ishxonasiga bordim. Respublika adabiyot va san'at nashriyoti bosh muharriri o'rinnbosari vazifasida ishlardi" deb eslardi o'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol.

Haqiqatan ham bu qissa yozuvchining ijod maydonida sezirarli joy egalladi. Asardagi bosh qahramonlar Sharifjon va Muqaddas. Qissa 60-yillarning sevimli qissalaridan biri bo'lib, fojeaviy sevgi haqida so'z yuritadi. Bosh qahramon o'z sevgisi bo'lgan Muqaddasga erishmoqchi bo'ladi va xudbinlik yo'lliga kiradi. Bu xudbinlik uning muhabbatidan ayiradi. Qissada ikki yoshning hayotdagi ilk qadamlari, quvonch va tashvshlari nihoyatda samimiy bayon etilgan. Sharifjon o'z e'tiqodi va iymoniga qarshi chiqib yo'lidan adashadi. O'zining va atrofdagi

shaxslarning nafsiга tutqun bo'ladi. Aslida Sharifjonning Muqaddasni o'rniga kirishi bir tasodif . Yozuvchi bir tasodif zamirida hayotning ziddiyatlarini namoyon qilmoqchi bo'ladi.

MUQADDAS bu qissaning qahramonini nomi emas, balki muqaddas bu insoniy tuyg'ular. Ya'ni insonning aziz : insof, iymon, vijdon, burch kabi tuyg'ulari. Sharifjon va Muqaddasning ayanchli qismatidan darak berarkan, yozuvchi mustamlakachilik tuzumining oddiy insonlarning hayotiga ham katta zarbalar beryotganini tasvirlashni istaydi. Inson o'zining dastlabki qadamlaridanoq axloqiy tamoyillarga amal qilishi va u orqali haqiqiy inson safiga qo'shilishi aytib o'tiladi. Afsuski, qissada yagona Sharifjon emas, balki bu tamoyillarga ota-onasining o'zi ham amal qilmaydi. Shunday ekan bu jarayonda farzandning hayotdan chekkaga og'ishi turgan gap.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz hayotda muqaddas tuyg'larga amal qilib, ularni muqaddasligiga putur yetkazmasdan yahar ekanmiz, shundagina chin inson bo'lishimiz mumkin. Yozuvchi ham o'z asar qahramnlarini xuddi shunday inson bo'lishini istagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Odil Yoqubovning hayoti va ijodi.Tavsiyanoma.
2. Odil Yoqubov. Muqaddas – T.: A.dabiyot uchqunlari, 2022, - 124 b

INTERNET SAYTLAR

1. <https://gulxan.uz/maqolalar/odil-yoqubov>
2. <https://uzhurriyat.uz/2019/07/31/odil-yoqubov-ijodkorning-o-zihalol-imonli-bo-lishi-kerak/>
3. http://www.ferlibrary.uz/f/odil_ekubov.pdf